



Translation methods of terminology in the printing and packaging industry

Bakhodirxon NOMONOV¹

Namangan Institute of Engineering and Technology

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

translation methods

terminological consistency

calquing equivalent search

adaptation.

ABSTRACT

The article examines the challenges of translating terms used in the printing and packaging industry. The specialized terminology in this field often carries specific meanings, making precise translation essential for achieving terminological consistency. The main focus is on translation methods such as direct translation, searching for equivalents, adaptation, calquing, and the creation of new terms. Illustrative examples are provided to demonstrate how terminology in printing and packaging technologies is translated and utilized across different languages. The analysis shows how the correct choice of terminology enhances effective international communication within this field.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp285-290>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining tarjima usullari

Kalit so'zlar:

terminlar tarjimasi,

tarjima usullari,

terminologik moslik,

kalkirovka,

ekvivalent izlash

adaptatsiya.

ANNOTATSIYA

Matbaa va qadoqlash sohasida maxsus terminologiya bilan ishlash, tarjima jarayonida o'ziga xos yondashuv va muammolarni talab etadi. Ushbu maqolada matbaa va qadoqlash sohasida qo'llaniladigan terminlarning tarjimasi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor terminlarni tarjima qilish usullariga, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri tarjima, ekvivalent izlash, adaptatsiya, kalkirovka va yangi terminlar yaratilishi jarayoniga qaratiladi. Maqolada yorqin misollar yordamida bu usullar ko'rib chiqilib, qaysi usul qaysi holatlarda samarali bo'lishi yoritiladi. Natijalar tarjima jarayonida terminologiyani to'g'ri tanlanishi matbaa va qadoqlash sohasidagi xalqaro kommunikatsiyani samarali qilishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

¹ PhD student, Namangan Institute of Engineering and Technology. E-mail: nomonov.bahodirxon@mail.ru

Методы перевода терминологии в полиграфической и упаковочной индустрии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

перевод терминов,
методы перевода,
терминологическая
совместимость,
калькирование
эквивалент,
адаптация.

В статье рассматриваются вопросы перевода терминов, используемых в полиграфической и упаковочной индустрии. Специфические термины этой отрасли часто имеют особое значение, и их точный перевод играет важную роль в достижении терминологической совместимости. Основное внимание уделяется методам перевода, таким как прямой перевод, поиск эквивалентов, адаптация, калькирование и создание новых терминов. Приведены яркие примеры того, как терминология полиграфической и упаковочной техники переводится и используется на различных языках. Анализ показывает, как выбор правильной терминологии способствует эффективной международной коммуникации в данной сфере.

KIRISH

Matbaa va qadoqlash sohasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, global tarmoqlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat jismoniy savdo mahsulotlari, balki tijorat va axborot yetkazishning asosiy omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, matbaa va qadoqlash sohasida terminlarning tarjimasi masalasi juda dolzarb bo'lib, u kommunikatsiya samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Matbaa va qadoqlash terminlari ko'p hollarda texnologik jarayonlarga, uskunalar, materiallarga va jarayonlardagi maxsus atamalarga tegishli bo'lib, ular ko'pincha tarjimaga muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli, bunday terminlar milliy tilga tarjima qilinishida maxsus strategiyalarni qo'llash lozim. Matbaa va qadoqlash sohasidagi ko'plab terminlar o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi yoki ekvivalent so'zlarni topish qiyin kechadi. Ushbu maqolada turli tarjima usullari orqali bunday terminlarni to'g'ri va samarali tarjima qilish usullari tahlil qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Matbaa va qadoqlash sohasida terminlarni tarjima qilish muammosi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli sohalarga, xususan, texnologiya, texnika va materiallar bilan bog'liq terminlarga tegishli. Ushbu terminlarni tarjima qilish jarayonida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Har bir yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanilish sohalari mavjud. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan tarjima usullari va ularning tahlilini ko'rib chiqamiz.

I. To'g'ridan to'g'ri tarjima

To'g'ridan-to'g'ri tarjima usuli texnik va ilmiy terminologiya tarjimasida keng qo'llaniladi. Bunda terminning asosiy ma'nosi boshqa tilga hech qanday o'zgartirishsiz ko'chiriladi. Bu usulning afzalligi shundaki, u tez va samarali tarzda ma'lumotni yetkazib beradi va har bir sohaning xalqaro terminlarini saqlab qoladi. Ayniqsa, texnologiya, matbaa va qadoqlash kabi sohalarda, xalqaro terminlar ko'pincha butun dunyo bo'yicha o'xshashdir, bu esa tarjimada murakkabliklarni kamaytiradi. Biroq, ba'zi hollarda,

to'g'ridan-to'g'ri tarjima o'zbek tilida yot bo'lib ko'rinishi yoki tushunishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun bu usul har doim ham samarali bo'lavermaydi, lekin texnik va maxsus atamalarda keng qo'llaniladi.

Misol:

1. Offset printing – Ofset bosma. Bosma texnologiyasi bo'lib, unda bo'yoq oldin metall plastinkaga o'tkaziladi va undan keyin bosma yuzasiga qo'llaniladi. Bu texnologiya kitoblar, jurnallar va boshqa ko'pgina mahsulotlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. "Offset printing" termini texnik mohiyatiga ko'ra xalqaro miqyosda keng ishlatiladi va uning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi sifatida "ofset bosma" o'zbek tilida ham ishlatiladi.

2. Digital printing – Raqamli bosma. Elektron fayldan to'g'ridan-to'g'ri bosma mahsulotga bo'yoq tushirish texnologiyasi. Bunda ofset yoki plastinka ishlatilmaydi, balki raqamli usulda chop etiladi. Bu termin "raqamli bosma" deb o'zbek tilida aniq va tushunarli tarjima qilinadi, chunki "digital" texnologik sohada keng qo'llaniladigan so'z hisoblanadi va u aniq tushunchaga ega.

3. Flexography – Fleksografiya. Qadoqlash mahsulotlarini chop etish uchun ishlatiladigan bosma texnologiyasi. U elastik bosma plastinkalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. "Flexography" so'zining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi "fleksografiya" bo'lib, bu matbaa texnologiyasining o'zbek tilidagi aniq ekvivalenti sifatida ishlatiladi.

4. Packaging – Qadoqlash Mahsulotlarni saqlash va tashish uchun ishlatiladigan materiallar va jarayonlar yig'indisi. "Packaging" termini xalqaro miqyosda keng tarqalgan va o'zbek tilida ham "qadoqlash" deb tarjima qilinadi. Bu so'z ishlab chiqarish, savdo va logistika sohalarida keng qo'llaniladi va to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishda hech qanday ma'no yo'qotilmaydi.

5. Label – Yorliq Mahsulot haqida ma'lumot beruvchi qog'oz yoki boshqa materiallardan tayyorlangan narsa. Yorliq mahsulot qadoqlashda yoki idishida bo'lishi mumkin. "Label" so'zi o'zbek tiliga "yorliq" deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi, bu ham texnik, ham kundalik foydalanishda to'g'ri keladi. Yorliq mahsulotning ma'lum bir xususiyatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

II. Ekvivalent izlash:

Ekvivalent izlash usuli tarjima jarayonida juda muhim o'rin tutadi. Ba'zi texnik terminlar, ayniqsa, matbaa va qadoqlash sohalarida, milliy tilga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin bo'lgan yoki umuman mavjud bo'lmagan hollarda ekvivalent izlash kerak bo'ladi. Bu usulda tarjimon asl so'zning ma'nosini saqlab qolishga harakat qiladi, lekin u so'zning boshqa tildagi yaqinroq ekvivalentini izlaydi. Ekvivalent izlashda asosiy maqsad matnni o'quvchiga tushunarli va texnologik jarayonlarni aniq yetkazib bera oladigan shaklda ifoda qilishdir. Ba'zan, tarjimada milliy til uchun mos ekvivalentni topish oson bo'lmashligi mumkin. Bu usulga ko'p hollarda texnologik jarayonlarni tasvirlashda murojaat qilinadi, chunki texnologiyalar o'ziga xos atamalarga ega bo'ladi va ularni yangi tilga ko'chirish qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Misollar:

1. Embossing – Bo'rtma bosma. Qog'oz yoki boshqa material yuzasida bo'rttirilgan tasvir yoki yozuvni hosil qilish jarayoni. O'zbek tilida bu jarayon uchun "bo'rtma bosma" ekvivalenti topilgan, chunki bu termin tasvir yoki yozuvni yuqori bo'rttirish texnologiyasini tushuntiradi. Bu ekvivalent original so'zning ma'nosini to'liq yetkazadi va terminologik jihatdan ham tushunarli.

2. Foil stamping – Folyoli tamg'a bosish. Maxsus metallik yoki pigmentli folyo yordamida qog'oz yuzasiga tamg'a bosish jarayoni. Bu jarayon ko'pincha nashriyotlarda yoki qadoqlash dizaynlarida foydalaniladi. O'zbek tilida "folyoli tamg'a bosish" ekvivalenti bu texnologik jarayonning mohiyatini yetkazib beradi va aniq ifodalaydi.

3. Die cutting – Shtamplash. Materialni (ko'pincha qog'oz yoki karton) maxsus shaklda kesish jarayoni. Ushbu jarayon qadoqlash va nashriyot mahsulotlarini tayyorlashda keng qo'llaniladi. O'zbek tilida "shtamplash" atamasi ushbu texnik jarayonni ifodalash uchun eng mos ekvivalent sifatida ishlatiladi, chunki bu so'z kesish va tamg'a bosishni birlashtiradi.

4. Spot UV coating – Mahalliy UF qoplama. Qog'oz yoki boshqa materiallar yuzasining ma'lum bir qismini ultrabinafsha nurlari bilan qoplash jarayonidir. Ushbu jarayon mahsulotning ma'lum qismlarini ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. O'zbek tilida bu jarayonni "mahalliy UF qoplama" deb atashadi, bu esa jarayonni aniq va texnik jihatdan to'g'ri ifodalash uchun mos keladi.

5. Letterpress printing – Tipografik bosma. Qadimiy bosma texnologiyasi bo'lib, unda bo'yoq qog'oz yoki boshqa material yuzasiga plastinka yordamida o'tkaziladi. Ushbu texnologiya klassik nashriyot mahsulotlarini chop etishda keng ishlatilgan. O'zbek tilida "tipografik bosma" atamasi bu jarayonning mohiyatini to'liq aks ettiradi, chunki u klassik tipografiya texnologiyasini tushuntiradi.

III. Adaptatsiya:

Adaptatsiya tarjima jarayonida so'zning asl ma'nosini saqlab qolgan holda, uni milliy tilga moslashtirish usulidir. Bu usulda terminning asli o'z tili qoidalariga moslashtiriladi yoki yangi so'z yaratish orqali milliy tilga kirib boradi. Adaptatsiya jarayonida xalqaro atamalar milliy tilning talaffuzi va yozuvi bilan moslashtiriladi, bu esa atamaning milliy tilga osonroq qabul qilinishini ta'minlaydi. Adaptatsiya o'zbek tilida yangi texnologiyalar, mahsulotlar va jarayonlar paydo bo'lganda keng qo'llaniladi, chunki ba'zan yangi terminlar uchun to'g'ridan-to'g'ri tarjima yoki ekvivalent topish imkoni yo'q bo'ladi. Adaptatsiya nafaqat terminning ma'nosini, balki uning milliy madaniyat va til qoidalariga mosligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Bu jarayon o'zbek tilida texnik, ilmiy va boshqa sohalarga yangi so'zlar kirib kelishida asosiy rol o'ynaydi.

Misollar:

1. Lamination – Laminatsiya. Qog'oz, karton yoki boshqa materiallarni himoya qilish yoki mustahkamlash uchun ustiga plastmassa yoki shaffof plyonka bilan qoplash jarayoni. O'zbek tilida "laminatsiya" so'zi xalqaro so'z sifatida o'zlashtirilgan va to'g'ri adaptatsiya orqali milliy tilga moslashgan. Bu atama texnik jihatdan aniq va tushunarli ifodalangan.

2. Typography – Tipografiya. Matnlarni chop etish va loyihalash san'ati va texnologiyasidir. Ushbu so'z aslida grek tilidan kelib chiqqan bo'lib, "typos" – bosma va "graphia" – yozish ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida "tipografiya" so'zi shu tarzda adaptatsiya qilingan va matbaa sohasida keng qo'llaniladi. Adaptatsiya jarayoni so'zning madaniy va texnik jihatlarini saqlab qoladi.

3. Register marks – Registr belgilari. Bosma texnologiyasida qo'llaniladigan maxsus belgilar bo'lib, ularning yordamida qog'ozda bo'yoqlarni aniq joylashtirish va chop etish jarayoni boshqariladi. O'zbek tilida "register marks" atamasi "registr belgilari" sifatida adaptatsiya qilingan. Ushbu atama matbaa va qadoqlash sohasida chop etish aniq bo'lishi uchun muhim rol o'ynaydi.

4. UV coating – UF qoplama. Bosma yuzasini ultrabinafsha nurlari yordamida qoplash texnologiyasidir. Ushbu texnologiya mahsulotning qoplamasini mustahkamlash va unga porloq ko‘rinish berish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida “UF qoplama” sifatida adaptatsiya qilingan va texnik sohada keng qo‘llaniladi. Bu atama jarayonni ifodalash uchun o‘z tilimizga moslashtirilgan.

5. Plotter cutting – Plotter kesish. Maxsus kompyuter boshqaruvida ishlaydigan uskunalar yordamida materiallarni aniq kesish jarayoni. Ushbu texnologiya dizayn va qadoqlashda keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilida “plotter” so‘zi moslashtirilgan holda “plotter kesish” sifatida ishlatiladi va aniq kesish jarayonini ifodalash uchun mos adaptatsiya qilingan.

IV. Kalkirovka:

Kalkirovka tarjima usuli so‘zning morfologik yoki tarkibiy qismlarini to‘liq tarjima qilish orqali yangi atamalar yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda asl termin tarkibi bo‘linib, har bir qism o‘z tilidagi ekvivalent so‘zlarga tarjima qilinadi. Kalkirovka asosan murakkab so‘zlar, iboralar yoki texnik atamalar uchun ishlatiladi, chunki ular tuzilishiga ko‘ra boshqa tilga aniq moslashtirilishi mumkin. Kalkirovka usuli ko‘pincha ilmiy va texnologik terminologiyada qo‘llaniladi, chunki u terminlarni milliy tilga qiyosiy yaqinlik bilan o‘tkazishga imkon beradi. Shuningdek, kalkirovka yangi terminlar kiritishda so‘z yaratish imkoniyatini beradi va bu usul orqali tilga yangi so‘zlarni qo‘shish jarayoni yanada tabiiy ko‘rinadi.

Misollar:

1. Cold foil – Sovuq folyo. Matbaa va qadoqlashda ishlatiladigan maxsus texnologiya bo‘lib, unda folyo sovuq usulda qog‘oz yoki boshqa materialga tushiriladi. O‘zbek tilida bu jarayon “sovuq folyo” deb ataldi. Bu kalkirovka usulining yorqin namunasidir, chunki “cold” – sovuq va “foil” – folyo kabi qismlar aniq tarjima qilingan va termin morfologik jihatdan o‘zgarmagan.

2. Screen printing – Ekran bosma. Bo‘yoqni matritsa orqali chop etish texnologiyasi bo‘lib, ko‘pincha reklama materiallari, plakatlar va futbolkalarni chop etishda ishlatiladi. “Screen” so‘zi o‘zbek tiliga “ekran” deb, “printing” esa “bosma” deb tarjima qilinib, “ekran bosma” shaklida kalkirovka qilingan. Bu termin o‘zbek tilida aniq va to‘g‘ri tushuniladi.

3. Watermark – Suv belgisi. Qog‘oz yoki boshqa materialga suv belgisini kiritish texnologiyasi bo‘lib, u maxsus ko‘rinmaydigan tasvir yoki yozuvdir. Ushbu texnologiya hujjatlarda yoki valyutalarda foydalaniladi. O‘zbek tilida bu termin “suv belgisi” deb kalkirovka qilingan. “Water” – suv, “mark” – belgi so‘zlari alohida tarjima qilinib, termin hosil qilingan.

4. Offset cylinder – Ofset tsilindri. Ofset bosma mashinasida ishlatiladigan asosiy komponentlardan biri bo‘lib, bo‘yoq qog‘ozga tushirilishida yordam beradi. O‘zbek tilida “ofset tsilindri” deb tarjima qilingan. Bu kalkirovka usulida “offset” atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan, “cylinder” esa “tsilindr” deb moslashtirilgan.

5. Print run – Bosma tiraji. Ma‘lum bir chop etish jarayonida nashr etiladigan nusxalar sonini bildiradi. O‘zbek tilida bu termin “bosma tiraji” deb kalkirovka qilingan. “Print” – bosma va “run” – tiraj kabi qismlar aniq tarjima qilinib, yangi atama shakllantirilgan.

XULOSA

Matbaa va qadoqlash sohasida terminlarni tarjima qilish o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, har bir tarjima usulining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud. Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri tarjima, ekvivalent izlash, adaptatsiya va kalkirovka usullari tahlil qilindi va bu usullar yordamida terminlarni o'zbek tiliga qanday samarali o'tkazish mumkinligi ko'rib chiqildi.

To'g'ridan-to'g'ri tarjima texnik atamalar uchun eng sodda va to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Bu usul xalqaro standart terminologiyani o'z tilimizda qo'llashga imkon beradi, lekin ba'zi hollarda milliy til qoidalariga mos kelmasligi mumkin. **Ekvivalent izlash** esa ko'pincha milliy tilda aniq mos keladigan terminlarni topishni taqozo etadi, bu usul texnik va ilmiy sohalarda ko'p qo'llaniladi, chunki unda terminologik moslik va tushunarlik muhim. **Adaptatsiya** orqali yangi atamalarni tilga moslashtirish va so'zlarni milliy talaffuzga va yozuvga mos shaklda qabul qilish osonlashadi. **Kalkirovka** esa murakkab atamalarni tarkibiy qismlarini tarjima qilish orqali yangi terminlar hosil qilishda samarali usuldir.

Matbaa va qadoqlash sohasida terminologiyani tarjima qilish faqatgina til masalasi bo'lib qolmay, balki texnologiyalarni tushunish va ularni boshqa tilda to'g'ri ifoda qilish bilan ham bog'liq. Ushbu sohada global hamkorlik va xalqaro bozor talablariga mos ravishda tarjima qilish orqali matbaa va qadoqlash texnologiyalarini yurtimizda samarali o'rganish va qo'llash imkoniyatlari kengayadi. Kelgusida texnologik taraqqiyot bilan birga yangi terminlar paydo bo'ladi va ularni o'zbek tiliga o'girishda yuqorida keltirilgan usullar yanada rivojlantirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir tarjima usuli o'z vaziyatiga qarab qo'llanilishi zarur va ularning barchasi matbaa va qadoqlash sohasidagi terminologiyani to'g'ri va samarali o'tkazishga yordam beradi. Tarjima jarayonida terminlarning ma'nosini saqlab qolish, milliy tilga moslashtirish va o'ziga xos madaniy va texnik jihatlarini hisobga olish eng muhim jihatlar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акулинина Т.В. Экстралингвистическая обусловленность особенностей английской терминологии компьютерной информатики: Автореф. дис. ...канд. филол. – Омск, 2003. – 23 с.
2. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков Berezin B.I. Poligraficheskiye materialy. – M.: Lesnaya promishlennost, 1986 -440s.
3. Akim L.E. Sinteticheskiye polimeri v bumajnoy promishlennosti, 1986. -248 s.
4. Лейчик В.М. Предмет, методы и структура терминоведения: Автореф д-ра филол.наук. – М., 1989. – 47 с.
5. Англо-русский словарь по полиграфии и издательскому делу/Виноградский А.В., Косенко М.Г., Раскин А.С., Уварова Р.М. – М.: РУССО, 1995.-582 с.
7. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Sharq. 1994.
8. Shamsi Husayn. Printing and its brief history. Tashkent, Oznashr 1930.